

Saodat Yuldosheva

**O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR
NUTQINI O‘STIRISHDA XALQ OG‘ZAKI
IJODINING O‘RNI**



Saodat Yuldosheva

**O`ZBEK TILI DARSLARIDA O`QUVCHILAR
NUTQINI O`STIRISHDA XALQ OG`ZAKI
IJODINING O`RNI**

*(Samarqand shahar 45-maktab o`zbek (davlat) tili fani o'qituvchisi
Gulrux Kamalovanning pedagogik faoliyati tajribasidan)*

S a m a r q a n d - 2018

S.A.Yuldosheva. O`zbek tili darslarida o`quvchilar nutqini o`stirishda xalq og`zaki ijodining o`rni. (Samarqand shahar 45-maktab o`zbek (davlat) tili o'qituvchisi Gulrux Kamalovanning pedagogik faoliyati tajribasidan).

– SamDU huzuridagi XTXQTMOHM. 2018-yil. bet.

Samarqand shahar XTB tasarrufidagi 45-umumta'lim maktabining o`zbek (davlat) tili o'qituvchisi Gulrux Kamolovanning ish tajribasi SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi Tillarni o`qitish metodikasi kafedrasida dotsenti Saodat Yuldosheva tomonidan ommalashtirildi. Mazkur ish tajriba Tillarni o`qitish metodikasi kafedrasining 2018 yil 27 dekabrda 11-yig'ilishida muhokama qilingan va hududiy markaz Ilmiy-uslubiy Kengashining 2018 yil 28dekabrda yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

Taqrizchilar: D.O`rinboyeva – SamDU dotsenti

A.Xo`jamqulov – SamDU HXTXQTMOHM o`qituvchisi

KIRISH

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda filologik fanlarning o'qitilishi muhim o'rinni tutadi. O'quvchining keng va mantiqli fikrlashi, fikrni savodli ifodalashi, og'zaki va yozma nutqining ravon bo'lishi uchun hamda o'zbek adabiyoti tarihi, xalq og'zaki ijodi, mumtoz sharq adabiyoti, zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti, adabiy-badiiy asarlar mazmuni, g'oyasi va muammosi, ijodkorlarning hayoti va ijodi haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining shakllanishi uchun ona tili va adabiyot fanlaridan chuqurroq bilim berilishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standarti ishlab chiqildi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, o'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi izchillikni yo'lga qo'yish lozim"- deb ta'lim-tarbiyaning o'rni muhimligini ta'kidlab o'tadi. O'quvchida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarning kamol topishi hamda har qanday ma'naviy hurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqod ruhining shakllanishi; uning milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi va so'z san'ati vositasida individual va shaxslik fazilatlariga ega inson bo'lib tarbiya topishida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining qo'shadigan hissasi kattadir. Ustoz o'z pedagogik mahorati, uslubi bilan darslarini qiziqarli va mazmunli o'tishi orqali o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikativ texnologiyalar, o'quvchilarni faollikka undovchi turli interfaol usullar va harakatli, harakatsiz ta'limiy o'yinlarga boy darslar o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichiga samarali ta'sir etadi. Ya'ni, ta'lim-tarbiyaning sifat-samaradorligini ko'tarish o'qituvchining mehnati, izlanuvchanligi va tirishqoqligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bugungi davr talabi ham shu. Axborot kommunikativ texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi ta'lim tizimida odatiy darslardan chekinib, o'quvchilar qobiliyatini, bilimini o'stirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar va usullarni darslarga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Xalq ta'limi tizimida bu borada samarali faoliyatlar olib borilmoqda. Shunday talablarga javoban Samarqand shahri maktablarida ham ta'lim-tarbiya sohasida arzigulik tadbirlar, yangicha yondoshuvdagi darslar tashkil etilmoqda. Jumladan, 45-umumta'lim maktabining o`zbek tili fani o'qituvchisi Kamalova Gulrux Tulkinovna ta'lim-tarbiyani sifat jihatidan ham yuksaltirish, iste'dodli bolalarni talabchanlik bilan o'qitish borasida ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Buning samarasi ayni vaqtda o'quv-tarbiya jarayonida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Taqdim etilayotgan risolada G.Kamalovning pedagogik faoliyati tajribasiga oid ishlari aks ettirilgan.

Kasbidan izzat-ikrom topgan ustoz

Samarqand shahar 45-umumta'lim maktabi pedagogik jamoasida faoliyat yuritib kelayotgan davlat tili fani o'qituvchisi Kamalova Gulrux Tulkinovna kasbdoshlari orasida o'z obro'-e'tiboriga ega ustozdir.

Gulrux Tulkinovna 1979-yilda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1986-1996 yillarda Shahrisabz shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida, so'ng 1996-2000 yillarda O'zMU ning o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Pedagogik ish faoliyatini 1998-2001-yillarda Toshkent shahridagi 137-o'rta maktabda, 2001-2004yillarda Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2004-2013 yillarda Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabida, 2013-yildan esa Samarqand shahridagi 45-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'z ish faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Mazkur dargohda o'zbek tili (davlat tili) fanidan dars berib kelmoqda.



Mamlakatimizda yosh avlodning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonidagi samarali mehnati hamda 2016-2017 o'quv yilida "Eng faol o'qituvchi" nomiga loyiq bo'lgani uchun hamda shu yili "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" tanlovining shahar bosqichida faxrli II o'rinni egallagani uchun Samarqand shahar Xalq ta'limi bo'limining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. Shahar shu'ba yig'ilishlarida, pedagogik kengashlarda, metodik kengashlarda, uslubiy birlashma

yig'ilishlarida, maktab ota-onalar yig'ilishlarida ilmiy jihatdan asoslangan, mazmunli ma'ruzalari bilan chiqishlar qilgan. 2014, 2017-yillarda muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida o'qib, o'z tajribasini oshirib kelmoqda. 2014-yildan to hozirga qadar faoliyat yuritib kelayotgan maktabida o'zbek tili, ona tili va adabiyot fanidan dars berish bilan birga o'zbek tili uslubiy birlashmasining raisi vazifasini bajarib kelmoqda.

G.T.Kamalova dars jarayonida turli interfaol usullardan foydalangan holda DTS talabiga mos qiziqarli darslar o'tib, o'quvchilarni o'z faniga nisbatan mehr-muhabbat uyg'ota olgan tajribali o'qituvchilardan biri hisoblanadi. Masalan, 2015-2016 o'quv yilida fevral oyida o'tkazilgan Ochiq darslar festivalida "Eng yaxshi ochiq dars" ko'rik-tanlovida 7-"G" sinfida o'tkazgan "Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi" mavzusidagi ochiq darsi g'olib deb topilgan. 2017-yilda 9-sinfda "Milliy urf-odatlarimiz" mavzusida namunali ochiq dars o'tib ShXTMFMTEBga shahar miqiyosida ommalashtirish maqsadida taqdim etilgan. G.T.Kamalova yosh avlodga ta'lim, tarbiya berish bilan bir qatorda o'zining tirishqoqligi, shijoati, jonkuyarligi, ilmga chanqoqligi, izlanuvchanligi va jamoat ishlarida faolligi bilan pedagogik jamoa ichida ajralib turadi.

SamDU HXTXQTMOHM
dotsenti Saodat Yuldosheva

E`tiroflar

Samarqand shahar XTB ona tili va adabiyoti fani hamda o`zbek (davlat) tili metodisti G.Imamova: O`qituvchi Kamalova Gulrux Tulkinovnani bilimdon, o`ziga nisbatan talabchan, xushmuomala, samimiy inson, shogirdlariga mehribon va g`amxo`r ustoz sifatida bilamiz. U o`ziga yuklatilgan har qanday vazifani o`z vaqtida bajarishga harakat qiladi. Dars jarayonida turli interfaol usullardan va AKT dan unumli foydalanib, o`quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bundan tashqari turli yig`inlarda dolzarb mavzulardagi ma`ruzalari ham hamkasblarida katta taassurot qoldirgan. Jumladan, Samarqand shahar pedagoglarining ilmiy-amaliy konferensiyasida “Ta`lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o`rni” mavzusida, avgust sho`ba yig`ilishida “Multimediya vositalarini amaliyotga joriy etishning samarali yo`llari” kabi ma`ruzalari uning tajribali, iqtidorli ekanligidan dalolat beradi.

G.Kamalovanning shogirdlari yurtimizning turli sohalarida barakali mehnat qilib kelishmoqda. Bundan keyin ham unga mustahkam sog`lik, metin iroda, yangidan-yangi izlanishlar, Vatanimizga yetuk, komil insonlarni tarbiyalashdek sharaflı kasbiga muvaffaqiyatlar tilayman.

45-maktab o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari Sh.Shodmonova: G.Kamalova 2014-yildan buyon davlat tili, ona tili va adabiyot o`qituvchisi vazifasida ishlab kelmoqda. O`zini ish faoliyati davomida ta`lim-tarbiya ishlarini chuqur va puxta biladigan yaxshi tashkilotchi-o`qituvchi sifatida ko`rsatdi. Kamalova Gulrux pedagogik jamoada talabchan, mohir va bilimdon, izlanuvchan o`qituvchilardandir. U har doim ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirish, dars jarayonida o`quvchilar bilimni boyitish va mustahkamlash, maktabda o`quv sharoitini yaxshilashga harakat qiladi.

G.T.Kamalova zamon talabiga javob beradigan o`qituvchilardan. Dars berish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan, turli metodik usullardan, AKTdan foydalanib boradi. U maktab faxri va sharaflı uchun bor kuchini ayamaydi. Maktabda o`zbek (davlat) tili uslubiy birlashmasida uslubiy birlashma raisi, o`tkaziladigan har bir

jarayonga bosh-qosh bo'ladi. Maktab, shahar, viloyat miqyosida o'tkaziladigan barcha tadbirlarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ladi.

G.Kamalova yaxshi sinf rahbar hamdir. U o'quvchilari hamda ota-onalar o'rtasida chuqur hurmat va ehtiromga ega. U prinsipial, vijdonli, chiniqqan, o'z-o'zini tanqid ruhida ishlaydigan o'qituvchilardandir.

45-maktab davlat tili fani o'qituvchisi Sh.Rasulova: Kamalova Gulrux bir necha yildan buyon Samarqand shahridagi 45-umumta'lim maktabida yosh avlodga o'zbek tili fanidan saboq berib kelmoqda. G.Kamalova o'z kasbining fidoyisidir. U o'zining talabchanligi, izlanuvchanligi, xushmuomalaligi, bolajonligi bilan maktabda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining e'tiborini qozongan. U bir necha yildan buyon maktabda ona tili va adabiyot, davlat tili uslubiy birlashmasi raisi bo'lib faoliyat olib bormoqda.

G.Kamalova shahar miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda, jumladan, shahar miqyosida o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" va "Yil o'qituvchisi – 2017" ko'rik-tanlovlarida qatnashib, sovrinli o'rinlarni olgan. Maktabda o'tkazilgan shahar uslubiy birlashma seminarlarida o'tkazgan ochiq darslari, tadbirlari ishtirokchilar maqtoviga sazovor bo'lgan. Uning o'quvchilari "Bilimlar bellashuvi" va fan olimpiadalarining maktab, shahar bosqichlarida munosib o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

45-maktab kutubxonachisi Gulchehra Yuldosheva: Gulrux opa Kamalova men bilgan ustozlar ichida kutubxona faoliyati bilan qiziqadigan, doim mutolaani, yangiliklarni kanda qilmasdan o'qib boradigan ustozlardan. Muallima og'ir, bosiq, ilimli, juda ko'p kitob mutoalaa qiladigan inson. Badiiy adabiyotni sevib o'qiydilar. O'z o'quvchilarida ham adabiyotga mehr uyg'ota olgan mohir o'qituvchi.

G.Kamalova o'ziga yuklatilgan vazifani qoyilmaqom qilib bajaradilar. Masalan, kitob taqdimotlarini olaylik. Har bir tadbirlari jonli, qiziqarli o'tishiga harakat qiladilar. Gulrux opa Kamalovani ijodiy barkamollik, g'ayrat, shijoat aslo tark etmasligini tilayman. Bilimli, o'qimishli shogirdlar yetkazib berishlarida zafarlar yor bo'lsin.

Barkamol avlodni tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijodining o'рни

Milliy bo'lmagan guruh o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishning vazifalari orasida davlat tilini o'rgatish va muloqot nutqini o'stirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu umumiy vazifa ayrim maxsus vazifalarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning nutqiy tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'at boyligini oshirish, mustahkamlash va faollashtirish, so'zlashuvga (*dialog*) o'rgatish, nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, ravon nutqini rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishini uyg'otish, savod olishga tayyorlash. Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi.

Davlat (o'zbek) tilini bilish bu faqatgina to'g'ri gap tuzishni bilish degani emas. O'quvchiga voqea-hodisalarni so'zlab berishni o'rgatish kerak: nafaqat predmetning nomini atashi, balki uni tasvirlab berish, biror bir voqea-hodisa haqida ularning ketma-ketligini to'g'ri saqlagan holda gapirishni bilishi lozim. Aniq voqealar ketma-ketligi saqlangan, tushunarli bo'lgan, ortiqcha savol va izohlar talab qilmaydigan, bir-biriga bog'langan nutq mazmunli nutq sanaladi. So'zlashuv ko'nikmalari asosida o'quvchilar o'zaro nutqni eshitish va tushunishni, suhbatdoshning savollariga javob berishni, sinf o'quvchilari oldida gapirishni, bir-birini eshitishni o'rganadilar. O'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni o'stirish va mukammallashtirish uchun ularning eshitish xotirasini mustahkamlovchi so'zlarni, gaplarni aniq talaffuz ettiruvchi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiruvchi keng ko'lamlı amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi zarur. Bular mashg'ulot vaqtida yoki undan tashqari hollarda qisqa vaqt mobaynida bajarsa bo'ladigan, hajm jihatdan uncha katta bo'lmagan matnlar va xalq og'zaki ijodiga oid tez aytish, topishmoq mashqi bo'lishi mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi necha asrlar mobaynida tarixning yo‘ldoshi, uning aks sadosi bo‘lib kelgan. Xalq hayoti, turmush tarzi, ruhiy dunyosining oynasi hisoblangan folklor asarlari ming yillar davomida to‘plangan ijodiy tajribalardan iborat badiiy-estetik qadriyatlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodida komil inson g‘oyasi azal-azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma‘naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli bo‘lib, o‘z zahirida tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; do‘st birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta‘rifi, yaxshi va yomon so‘zning oqibati, halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, og‘a-inichilik va qonqardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo‘rqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik kabi kategoriyalar talqin qilinadi. O‘zbek olimi M.Haydarovning yozishicha: “Xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta‘lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag‘oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan, an‘anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo‘shiqlar va maqollar-odobnoma darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak”¹. Xalq pedagogikasining sharqona an‘analari, oilaviy-maishiy yo‘nalishlari, o‘ziga xosligi, ommaviy bayram – sayllar, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi o‘tib kelayotgan yosh avlod tomonidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Folklorshunos olim S.Turayevning ta‘kidlashicha: “Xalq og‘zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta‘lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi”¹. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodida inson qadr-qimmati va sha‘nini ulug‘lovchi, ma‘naviy kamolotini belgilovchi omillar, iymon-e‘tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do‘st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri yosh avlod uchun odobnoma, ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

Jamiyatimizdagi yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda tarbiyaning

¹ M.Haydarov. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida tarbiya masalalari.-T.: Fan, 2004.-B.-12.

¹ S.To‘rayev. Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar.-T.: Mehnat, 2005.-B.-56.

vazifalari keng va ko'p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarkib toptirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

Xalq og'zaki ijodida keng talqin qilinadigan milliy qadriyatlar – insonparvarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, ahillik, to'g'riso'zlik va boshqalar o'zbek xalqi qadriyatlarining nozik kurtaklari bo'lib hisoblanadi. Ularni xalqimiz asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. Mamlakatimizning kuch-qudrati manbayi ham uning milliy qadriyatlarga sodiqligidadir. O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq og'zaki ijodining qimmatli xazinasidan foydalanish yo'llarini, metodikasini ishlab chiqish pedagogikadagi dolzarb vazifalar qatorida turibdi. Xalq og'zaki ijodining yorqin sahifalari - "Alpomish", Go'ro'g'li", "Barchinoy" kabi xalq tomonidan yaratilgan dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, o'lanlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar o'quvchilarni tarbiyalashda kuchli manba bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, ulardagi milliy qadriyatlarning ulug'lanishi, milliy iftixor hissining mavjudligi bolalarga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi asarlari to'plovchilarini ham birinchi navbatda alla qo'shiqlari qiziqtirib kelgan. Folklorshunos, lingvist, psixolog, antropolog va etnograflarning qator tadqiqotlari ana shu masalaga bag'ishlangan. Bu qiziqish bora-bora o'quvchilar folklorshunosligiga ham ta'sir etgan. Keyingi paytlarda o'lkashunoslikka bag'ishlangan kitoblarda o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan xalq og'zaki ijodiga ham o'rin ajratildi. Rus folkloristikasida o'quvchilar og'zaki ijodi materiallarini qardosh xalqlar o'quvchilar og'zaki ijodi bilan qiyoslab o'rganish bo'yicha ham qator ibratli ishlar qilindi. Ammo bugungi kunga qadar ingliz xalqi tomonidan yaratilgan folklor va o'zbek xalq ijodini qiyosiy o'rganish sohasida hali tadqiqotlar nihoyatda kam. Maktabda o'quvchilar og'zaki ijodi materiallarini o'rganishning muvaffaqiyati eng avvalo ularning o'quv dasturlari va darsliklariga, sinfdan tashqari ishlar va rejalariga, mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatiga kiritilishiga bog'liqdir. Bolalar adabiyoti, musiqali asarlar, xalq

ogʻzaki ijodi, sheʻrlar va boshqalar oʻquvchilarning nutqini oʻstirishda yaxshi yordamchi boʻlishi mumkin.

Maqollar

Xalq donoligining badiiy ifodasi boʻlgan maqollar tabiat, jamiyat va inson tafakkurining poetik obrazi sifatida oʻtmish ajdodlarimiz tomonidan sayqal topgan. Shu sababli maqollar shakl jihatdan ixchamligi, soddaligi, falsafiy jihatdan teranligi, donoligini oʻzida ifoda etganligi bilan alohida ajralib turadi. Oʻquvchlar uchun mazmuni tushunarli, Vatan haqidagi, doʻstlik, ota-ona, odob-axloq, mehnat haqidagi maqollarni yodlatish tavsiya etiladi.

Mehnat, mehnatning tagi rohat.

Ish ishtaha ochar, dangansa ishdan qochar.

Bulbul chamannni sevar, odam Vatanni.

Mehnatdan kelsa boylik, turmush boʻlmar chiroylik.

Boʻlinganni boʻri yer, ayrilganni ayiq yer.

Ona bilan bola, gul bilan lola.

Oʻzga yurtda shoh boʻlguncha, oʻz yurtingda gado boʻl.

Yaxshilik qilsang, yashir,

Yaxshilik koʻrsang, oshir.

Yaxshilik urugʻini sepsang har tomon,

Jannat mevasini olasan shu on.

Qilingan yaxshilikning ofati

„Yaxshilik qildim“, deb maqtanib yurishdir.

Aytar gapni ayt, aytmas gapdan qayt.

Ona yurting omon boʻlsa, rang-roʻying somon boʻlmas

Er yigitning qadrini, ogʻasi emas el bilur

Topishmoqlar

Topishmoqlardan darslarda foydalanish ham o`quvchilar nutqini rivojlantirish va boyitishda katta ahamiyatga ega. Har bir topishmoq biror-bir narsa-buyumga qaratilgan bo`ladi. Topishmoqni erkag-u ayol, katta-yu kichik baravar aytishgan. Topishmoq aytishish jarayonida kichiklar ulardan hozirjavoblikni o`rgangan. Topishmoqning javobini topish uchun aytilgan matnni yaxshi o`ylab, nimaga ishora qilayotganini anglab olish, topishmoqning asosiy xususiyati va belgilari qaysi predmetga qaratilganligini aniqlab olish kerak bo`ladi. Topishmoqning javobi tug`ri topilsa, o`sha paytdayoq boshqa jumboq o`rtaga tashlanadi. Mobodo, javobini topishda qiynaladigan bo`lsa, u holda aytuvchiga «jonlimi», «jonsiz »deb so`raladi. Unda ham javob topishga qiynalsa, «qayerda bo`ladi», «qattiqmi», «yumshoq» deb so`raydi. Shundan ham topa olmasa u holda topuvchi «shahar berdi». O`quvchilar topishmoqlar orqali biron-bir narsa-buyumning belgisi, uning bajaradigan vazifasi va ahamiyati haqida ma`lumotga ega bo`ladi. Topishmoqlar bolaning faqat nutq o`sishiga emas, balki fikrlashga, o`ylashga, topqirlik va chaqqonlikga o`rgatib boradi.

*Boshi bor-u, oxiri yo`q,
Ketaverasan bir yo`lda,
Oxiriga yetay dema,
Yetolmaysan million yilda. (Doira)*

*Uchta uchi uchta burchak,
Va yana uchta tomon,
Uchalasi qo`shilishib,
Yashaydi omon-omon. (Uchburchak)*

*Osmonning ustuni yo`q,
Xovuzning qopqog`i yo`q,
Ko`rpaning yengi yo`q,
Oshpichoqning qini yo`q,*

Tez aytishlar

Tez aytishlar kichik va maktab yoshidagi bolalar nutqidagi ayrim tovushlarni buzib talaffuz etish hollarini tuzatishga, to'g'ri so'zlaydigan bolalarda esa, adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga, nihoyat, bolalarni jumlalardagi mantiqiy urg'uni topib so'zlashga yordam beradi. Shuning uchun ham ularning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir.

Bolalar tez aytishlari bola tallafuzidagi ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslanadi. Xalq orasida bular "tural", "chalg'ituvchi", "chalish" deb yuritiladi. Lekin folkloristik termin sifatida "tez aytish" umumlashadi. Tez aytishda ma'lum fonemalar (ko'pincha jarangli undoshlar) takrorlanadi. Jumladan, bolalar "sh", "r", undoshlarini ayta olmay "s", "l". "y" shaklida tallafuz qiladilar va yengil kulgigi sabab bo'ladilar. Masalan, "Bir tup tut, bir tup tuning tagida turp. Tutning tomirini turp turtib turibdimi yoki turpning tomirini tut turtib turibdimi?". Bu gaplarda "t" tovushi ishtirok etgan so'zlarning ko'p ishlatilishidan tez aytish (tural – so'zlardan birortasini aytishda tutilib qolish yoki boshqacha tallafuz etish) hosil bo'ladi. Bu gap ko'p qaytarilishi, mashq qilinishi bilan unga ko'nikma hosil bo'ladi. Sodda gapidagi vazndosh va ohangdosh so'zlarning yonma-yon keltirilishi ham tallafuz etganda yanglishish, so'z shaklini buzishga olib keladi.

Demak, tez aytishlar bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni yo'qotishga qaratilganligidan tashqari, yoshlar orasida aql va so'zamollik, chechanlik musobaqasi sifatida o'yin-kulgi, ko'ngil ochish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Oq choynakka oq qopqoq,

Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

Qishda qatiq qattiq qotib qoldi.

G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

*Qishda kishmish pishmash,
Pishsa kishmish qishmash.*

Bir tup tut, tutning tagida turp.

Tut turpni tutib turibdimi, turp tutni tutib turibdimi?

O'ktam ko'm-ko'k, ko'rkam ko'klam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.

Qo`shiqlar

Xalq og'zaki ijodida shunday qo'shiqlar borki, ularning ayrimlari qadimgi davrlarda muayan marosim va urf odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik ular kattalar repertuaridan chiqib, butunlay bolalar folkloriga o'tgan. „Boychechak“, „Oftob chiqdi olamga“, „CHittigul“, „Laylak keldi yoz bo'ldi“, „qurbaqa“, „qaldirg'och“, singari qo'shiqlarni bolalar tom boshlarida, dalalarda, qishloq ko'chalarida, devor-tomlar tagida aytishadi. Ular bahor kelishi, quyoshning olamni isitishi, qushlarning uchib kelishi, suvlarda qurbaqalarning paydo bqlishi bilan bog'langan. „YOmg'ir yog'aloq“ qo'shig'i esa dehqon bolalarni quvontirgan, dehqonchilikda mo'l hosil va'da qilgan bahor yomg'irini yog'ishini tasvirlaydi, albatta. Ko'p qo'shiqlar ota-onalarning mehnat jarayoni bilan bog'langan.

„Boychechak“ qo'shig'i:

Boychechagim bolasi, qulog'ida donasi.

Donasini olay desam, chiqib qoldi onasi.

Qattiq erdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq erdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechagi boylandi, qozon to'la ayronidir.

Ayroningdan bermasang, qazonlarining vayronidir.

Boychechak yerning qori erib tugallanishi bilan er betiga chiqib hamal kirganini bildiradigan o'simlikdir. Uning paydo bo'lishi xalqimiz orasida qadimgi zamonlardan beri o'tkazilib kelayotgan navro'z bayramiga to'g'ri keladi. Bu bayram kunlari har bir xonadonda qoqi mevalardan sharbatlar tayyorlangan, bo'za, qimiz, ayronlar hozirlangan. Yangi chiqqan o'simliklardan ko'k somsa, chuchvaralar pishirilgan, mahallalarda sumalak, ko'k oshi bazmlari boshlangan. Xuddi shu faslda bolalar to'p-to'p bo'lib boychechak o'simligini dala-qirlardan qidirib topishib, so'lib qolmasligi uchun ildizdagi loyi bilan lattalarga o'rab, ko'chama-ko'cha, hovlima-hovli yurib qo'shiq aytganlar. Boychechak madhi aytilgan yuqoridagi parchalar ana shu xushchaqchaqlik kayfiyatini aks ettirgan."Boychechak" qo'shig'ining to'rtliklarini yolg'iz bola aytsa, naqoratni birgalashib kuylashgan.

"Oftob chiqdi olamga" qo'shig'ida bolalarning o'ziga xos arazi, noroziligi ifodalangan.

*Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
- Ana dala,er, dedi.
Xolam o'tin ter, dedi
O'tin terdim bir quchoq,
Kulcha yopdi bir o'choq.
O'g'liga berdi ancha,
Menga bir kuyuk kulcha.*

Bahor-ko'klam quyoshi bolalarni shod etadi. Ular qish sovug'i, yoqimsiz loygarchilikdan qutilib, qish choponlarini tashlab, engil-elpi kiyimlar bilan har tamonga chopqillashib o'ynaydilar.

*SHamol,xotining o'ldi,
Ketmon olib yugur!
SHamol,bag'ring kamol,
CHO'loq ketmoningni olib bor!-*

deb shamolga xitob qilishib, tomlarda,yalangliklarda varrak uchiradilar.

Bahorgi yog'ingarchilikdan ham bolalar o'yin-kulgi, hazil sifatida foydalanadilar.

Yomg'ir yog'aloq,

Echki sog'aloq,

Boyning o'g'lining

Qorni dumaloq.

O'g'il va qizil bolalar orasida yaqin kunlargacha "To'p", "To'p tosh", "CHitti gul" kabi o'yinlar bo'lardi. Bu o'yinlarning har birining o'ziga xos qo'shiqlari bo'lib, ular o'yin jarayonida bir bola yoki ko'pchilik tomonidan ijro qilingan. Masalan.

La-la-la-lay, la-la-la-lay,

Olti pulga choy olay.

CHoynagimning sopi yo'q,

Kelin ayam tobi yo'q.

Tomga sepdim sedana,

Terib esin bedana.

Taqir –tuqir objuvoz.

Mening akam qurchoqboz,

Qurchoqbozning xotini

Qand o'ralgan oq qog'oz.

Bolalar o'z davrasida uni aytish orqali qo'shiqchiligi bilan maqtanib, aka va kelin ayalarini tasvirlaganlar. Qiz bolalarning to'p (koptok) o'yinlarida quyidagi qo'shiq ijro qilingan.

Birim – bilan,

Ikkim – ilon,

Uchim – uchak,

To'rtim – to'shak,

Beshim – beshov,

Oltim – oltov,

Ettim - ettov.

To'qqizim – to'qlan,

O'nim – bujmak.

Bu qo'shiq koptokning yer yoki devorga urilishiga hamohang bo'lib, u orqali yutuqlar soni hisoblanadi. Harakat va ovozning ritmik birligi o'ziga xos musiqiylik yaratib, bolaning o'yin holatidagi kayfiyatini ifodalaydi.

Allalar

Bola tarbiyasida qo'shiqning roli juda katta. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alla qo'shig'i yetakchi o'rinda turadi. Beshik qo'shig'i-allada kichkintoyning dastlabki tabassumi, ilk bor qo'l-oyoqlarini qimirlatishi, imo-ishorani tushunishi kuylanadi. Ona o'z allasida atrofni qurshab turgan olamni qo'shib aytadi. U bolani ovutish, uxlatish maqsadida, mayin ovozda aytiladi. Alla bolaga zavq bag'ishlaydi, ma'naviy tarbiya beradi. Ovuntirish-allani hamma onalar, buvilar, bobolar aytishadi. Olloh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hyech qanday sharpa- dushman uning uyqusini buza olmasligini quyidagi to'rtlikdan bilib olish qiyin emas.

Namuna:

Alla bolam alla, jonim bolam alla

Ikki ko'zim alla, shirin so'zim alla.

Alla bolam baxting bor, xar narsaning vaqti bor.

Uxla bolam alla, alla bolam alla.

Ertaklar

Ertak ham o'quvchi nutqini rivojlantirishda eng muhim vositadir. Ertaklar hayot haqiqatini, hayotiy va uydurmalar asosida tasvirlangani tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayri tabiiy jasoratlari bilan boshqa janrlarda farq qiladi.

Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxona tez yetib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan.

Bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar hayvonlar haqida sehr-jodu, fantastik, sarguzasht ertaklar bo'ladi. Bolalar ertaklardagi ijobiy qahramonlarning xarakteri, fazilatlarini va boshqa tomonlarini o'rganadi. Ularning lug'atida yangi so'zlar paydo bo'ladi. Har bir ertakda bolalar uchun yangilik bo'lishi kerak. Ertak qahramonlari bajaradigan ishlarini va ezguliklarini bola o'z hayotida amalga oshira boshlaydi.

Shirin uyqu

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. U vafoti oldidan o'g'illariga: „Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng“, - deb vasiyat qilibdi. Bu gapni katta o'g'illari bir xil tushunibdi, kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi. Katta o'g'illar hovliga suv sepib, karavotga ko'rpani qalin to'shab har xil shirin taomlarni ustma-ust yeb yotaveribdi. Oxiri yeyishga ovqatlari qolmabdi. Kichkina o'g'il esa ko'p mehnat qilibdi, quruq yegan noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uyqusi ham shirin tuyilar emish. Shunday qilib borgan sari uning davlati ziyoda, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boravergan ekan.

„O'zbek xalq ertaklari“ kitobidan

She'rlar

She'rlar o'quvchilarni chiroyli ma'noli, ifodali va ta'sirchan so'zlashga o'rgatadi. Har xil mavzudagi she'rlar bor: tabiat manzaralari, fasllar, jonivorlar olami, o'simliklar va mevalar to'g'risida, ilm olish, kitob va uni o'qishning foydaliligi, Vatanni sevish, oila va do'st-u yaqinlarni qadrlash to'g'risida, mehnatsevarlik, ahillik, xushxulqlik haqidagi turli hajmdagi she'rlar o'rgatib boriladi.

Lola

*Bahor keldi elimizga,
Ko 'm-ko 'k bo 'ldi bog', dala.
Sevinch to 'lib dilimizga,
Terib keldik gul – lola.
Qanday rohat bahor chog 'i,
Tabiat ham o 'zgacha.
Keng Vatanning chaman bog 'i,
Yam-yashildir kuzgacha.
Bahor keldi elimizga,
Yashil to 'n kiydi dala.
Shodlik to 'ldi dilimizga,
Terib keldik biz lola.*

(Ilyos Muslim)

Rivoyatlar

O`quvchi nutqini rivojlantirishda rivoyatlar ham katta ahamiyatga ega va u muhim vosita rolini o`taydi. Rivoyatlar tarixda yuz bergan voqealar, tarixiy shaxslar faoliyati kabilar to`grisida yaratilgan xalq og`zaki ijodi namunalaridir. Shu sababli o`quvchilar uchun rivoyatlarni o`qish qiziq. Chunki o`quvchilar tarixda yuz bergan voqealarni eshitishi va bilishi doimo ham xohlaganlar.

O`qituvchi bolalarga rivoyatlarni ma`noli ifodali va ta`sirchan aytib berishi juda muhim. Bundan tashqari o`quvchi o`zi mustaqil rivoyatni hikoya qilib berishga ham harakat qiladi. Asta-sekin o`quvchilar adabiy tilda so`zlashga ham o`rganib boradilar.

O`quvchilarga turli suratlar, manzaralar, rasmlar ko`rsatib, turli hikoyalar tuzish vazifasini berib borish juda katta ahamiyatga ega. Bunda o`quvchi so`zlarni so`zlarga, gaplarni gaplarga ma`no va mantiqiy jihatidan bog`lashni, grammatik vositalarni o`z o`rnida qo`llash ko`nikmalarini egallab boradi.

NAMUNAVIY DARS ISHLANMALAR

9-SINF. DAVLAT TILI.

MAVZU: MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZ

Mavzu	Milliy urf-odat va an'analarimiz
Maqsad	<p>Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga milliy urf-odatlar va an'analarimiz haqida ma'lumot berish.</p> <p>Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni milliy urf-odatlar va an'analarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.</p> <p>Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, hozirjavoblikka undash hamda lug'at boyligini oshitish.</p>
Vazifalari	<p>Vazifalari: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirish;</p> <p>Mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.</p>
O'quv jarayonining mazmuni	Og'zaki va yozma nutqda mavzuga oid tayanch so'zlarni nutq vaziyatiga mos holda qo'llash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: "Charxpalak", "Klaster" "Sinkveyn" "Aqliy hujum" kabi usullar</p> <p>Vosita: 9-sinf O'zbek tili darsligi, texnologik vositalar, mavzuga oid ko'rsatmali va tarqatma materiallar, rangli rasmlar, rag'bat kartochkalari</p> <p>Turi: Yangi bilim beruvchi.</p> <p>Usul: Interfaol.</p> <p>Nazorat: Og'zaki, yozma nazorat, savol-javob.</p> <p>Baholash: 5 balli tizim asosida.</p>
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va

	uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o`rgatadi. O`quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo`lib ishlashni o`rganadi, nutqi rivojlanadi.
Kelgusi rejalar	O`qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish. O`quvchi: Mustaqil ishlashni o`rganadi. O`z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlaydi, ularni o`rganadi. Do`stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi.

Darsning blok-chizmasi

T/r	Dars bosqichlari	Vahti	Usullari
1.	Darsning tashkiliy qismi.	5daqqa	Ta`til taassurotlari haqida „Xotira mashqi” o`yini, „Zanjir” usulida aqliy hujum.
2	Takrorlash	10 daqiqa	O`quvchilarni uch guruhga bo`lib, “Charxpalak”, “To`g`risini top” usulidan foydalanish
3	Asosiy qism. Yangi mavzu.	10 daqiqa	Rangli rasmlardan foydalanish.
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash.	10 daqiqa	Darslikdagi topshiriqlar bilan ishlash.
5.	Mashq va topshiriqlar	8 daqiqa	Guruh ishlarini baholash, rag`batlantirish
6.	O`quvchilar bilimini baholash uyga vazifa berish.	2 daqiqa	Uy ishi:3-mashq gaplarni ona tillariga tarjima qilish.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism. Sinfga kirib o`quvchilar bilan salomlashib, navbatchi orqali davomatni kuzataman. Sinf xonani tozaligiga e`tibor beraman. O`quvchilarning darsga tayyorligiga, jumladan kitob,daftar, ruchkalarni taxligiga e`tibor qarataman.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Sizlarni ko'rganimdan xursandman. Tayyor bo'lsangiz darsni boshlaymiz. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar. "Navro'z", "An'ana", "Qadriyat" guruhlari

O'quvchilardan uyga berilgan 3 – mashq (92-bet) so'raladi va daftarlari tekshirilib baholanadi.

Kattaga hurmatda bo'lgan	yosh kelsa ishga.
Yomonni tanqid qiladilar	kichikka izzatda.
Qari kelsa oshga,	yaxshiga taqlid.
Aqlli osh pishirar	baxilning yuzi kuyar.
Rostgo'yning yuzi kular,	aqlsiz tish sindirar.

Mashq tekshirilgach, "Charxpalak" usulida tarqatma materiallar bilan ishlanadi

"Navro'z" guruhiga:

1. Shukur Burhonov qanday rollarni ijro etgan?
2. Sifat gapda otlashganda qanday qo'shimchalarni oladi?

"An'ana" guruhgi:

1. Shukur Burhonov rollari nimasi bilan ajralib turadi?
2. Sifat otlashganda unga qanday vazifalar yuklanadi?

"Qadriyat" guruhiga:

1. Shukur Burhonov qanday milliy qahramon obrazlarini ijro etgan?
2. Otlashgan sifatlar qatnashgan maqollarga misollar keltiring?

II. Yangi mavzuni o'tish. "Milliy urf-odat va an'analарimiz. (buyon, beri, boshqa ko'makchilarining qo'llanishi)"

O'zbek xalqida qadimdan mehr oqibat, saxiylik ota-ona va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik kabi insoniy fazilatlar bor. Shuning uch ham O'zbek xalqi orasida bir-birini yo'qlash, nochor va nogiron oilalarga yordam berish odat tusiga kirgan .

O'zbekistonliklarning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan mehmondo'stlik kattalarga hurmat, to'y va marosimlarda o'zaro yordamlashish, hashar, oilada bir-

biriga ko'maklashish, oila buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi udumlar ko'p yillardan beri mavjud. Shunday ekan, ota-bobolarimiz udumiga sodiq qolgan holda bir-birimizdan yordamimizni ayamaylik. Axir, moddiy yordam bera olmasak ham, yaxshi so'z, shirin muomala, do'stona munosabat bilan yordam berish mumkinku! Aziz bolalar, bir-biringizdan yordamingizni ayamang! O'quvchilardan milliy urf-odatlar va an'analarimiz haqida yana nimalar bilishlari haqida so'rayman.

Grammatika

Bilan, uchun, tomon, qarab, buyon, qoshida, oldida, beri, boshqa, tagida kabi so'zlar ko'makchilardir.

Ko'makchilar ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi. O'zi qo'shilgan so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. *Buyon, beri, boshqa* ko'makchilari chiqish kelishigi shaklidagi so'zlarga qo'shiladi: *bundan buyon, olmadan boshqa, yozdan beri, suhatdan oldin* kabi.

Guruhlarga darslikdagi 2-topshiriqni bajarish topshiriladi. 2-topshiriq 1-topshiriq asosida bajariladi.

1-guruh:

O'zbek xalqida qadimdan ..., ..., ... kabi insoniy fazilatlar bor.

2-guruh:

O'zbek xalqi orasida ... va ... oilalarga yordam berish odat tusiga kirgan.

3-guruh:

Ota-bobolarimiz udumiga ... bir-birimizdan yordamimizni ayamaylik.

Guruhlardan o'quvchilar doskaga chiqib 1-mashqni bajaradilar

1-mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalari ishtrokida gaplar tuzing.

Navro'z bayrami, urf-odat, an'ana, milliy libos, Xotira va qadrlash kuni, ziyorat qilmoq.

2-mashq. Guruhlar bilan og'zaki bajariladi. Qaysi guruh faol ishtirok etsa o'sha guruhga rag'bat kartochkalari beriladi.

O'quvchilarga mashq asosida quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

“Aqliy hujum” metodi asosida.


?! Savollar

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar biror soroqqa javob bo'ladimi?
2. Ular gaplardan tushirib qoldirilsa, fikr anglashiladimi?
3. Ular qaysi so'z turkumlaridagi so'zlardan keyin qo'llangan?

Uchala guruhga “Klaster” usulida tarqatmalar tarqatiladi. Namuna:

III. Yangi mavzuni mustahkamlashda tarqatmalar bilan ishlanadi.





Lug`at bilan ishlash

Saxiylik – щедрость	moddiy yordam – материальная
Mehr-oqibat – мелосердие	помощь
Yo`qlamoq – узнавать	sodiq qolmoq – быть верным
Ma`naviy qiyofo- отражение	udum - традиции
Ko`maklashish – помочь	yo`l qo`ymaslik - недопустить

O`qituvchi: Bahor boshlanishi bilan dehqonlarning ishlari boshlanib ketadi. Mahallalarda, hovli-joylarda ham yig`ishtirish-tozalash ishlari avjiga chiqadi. Maktablarda ham ommaviy shanbaliklar o`tkaziladi. Qani bolalar, bunda qanday ishlar amalga oshiriladi?

O`quvchi: Yerlarlar ketmon bilan chopiladi, gullar ekiladi, daraxtlar oqlanadi.

O`quvchi: Turli mevali va mevasiz ko`chatlar ekiladi, kartoshka, sabzi, piyoz, pomidor bodring kabi sabzavotlar ekiladi.

O`quvchi: Hovli-joylar, ko`chalar tozalanadi, suv sepilib, supuriladi.

O`qituvchi: Aytganlaringiz barchasi to`g`ri. Keling endi sizlar bilan bahor faslini “Sinkveyn” metodida ko`rib chiqamiz.

Sinkveyn

1. Bahor

2. maftunkor, go`zal

3. uyg`onadi, yasharadi, gullaydi.

4. Bahorda daraxtlar oppoq gullaydi.

5. Ko`klam

IV. Uyga Vazifa: “An`ana” so`ziga “Sinkveyn” yaratish. 3-mashq, tarjima qilish.

V. Darsning yakuni. Faol qatnashgan o`quvchilar baholanadi. G`olib bo`lgan guruh rag`batlantiriladi.

SINF: 5-SINF

MAVZU: ERTAKLAR OLAMIDA (O`tgan zamon hikoya fe`li)

Dars maqsadi:

a) ta`limiy: O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish lug`at boyligini oshirish; o`quvchilarning o`tgan zamon hikoya fe`lining qo`llanishi haqidagi bilim, ko`nikma va malakalarini takomillashtirish; savodxonlik ustida ishlash; mustaqil fikrlashga o`rgatish.

b) tarbiyaviy: o`quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

c) rivojlantiruvchi: vatanga, ona zaminga hurmat, mehr tuyg`usini uyg`otish.

Dars metodi: interfaol, yangi bilim beruvchi. “Blis-so`rov” , “Sinkveyn” usuli, “Venn diagrammasi” dan foydalanish.

Dars jihozi: darslik, tarqatma materiallar, turli o`zbek xalq ertaklar rasmi tushirilgan rangli rasmlar.

Dars rejasi:

Tashkiliy qism - 2 daqiqa

O`tilgan mavzuni takrorlash- 5 daqiqa

Yangi mavzu bayoni – 15 daqiqa

Yangi mavzuni mustahkamlash – 10 daqiqa

Mashq va topshiriqlar - 10 daqiqa

O`quvchilar bilimni baholash , uygavazifaberish -3 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi orqali davomatni aniqlash, Odob-axloq qoidalari haqida, mehnat qilish va tozalik haqida qisqacha suhbat. O`quvchilarni ikki katta guruhlariga bo`lib olish. Ikki jamoa: “Bilimdonlar” hamda “Zukkolar”.

Uyga vazifani tekshirish:

Darslikning 82– sahifasida “Beruniyning dam olish kunlari” matni berilgan. Matn yuzasidan savol va topshiriqlarga guruhlar og`zaki javob beradilar.

1. Beruniy bobomiz yiliga necha marta dam olar ekanlar?
2. Birinchi dam olish kunlarini qay tarzda o`tkazganlar?
3. Ikkinchi dam olish kunlarini qay tarzda o`tkazar edilar?
4. Beruniy nega “Bir daqiqa vaqtni behuda o`tkazganim, halok bo`lganim” der ekan?

6-mashq. Maqol va hikmatli so`zlar qatorini davom ettirib yozish hamda yod olish. Guruhlardan 2-3 o`quvchilar maqollarni davom ettirib o`qib beradilar. 2 guruhga topshiriq beriladi. 1-guruh mehnat haqida, 2-guruh esa bilim haqidagi maqollardan namunalar aytib berishlari kerak.

Yangi mavzu: Ertaklar olamida. O`tgan zamon hikoya fe`lining qo`llanishi haqidagi bilim, ko`nikma va malakalarini takomillashtirish; O`quvchilarni yangi dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish; ularning faoliyatini o`quv topshiriqlarini bajarishga o`rgatish;

Ertak haqida o`qituvchi, avval, o`quvchilardan so`raydi, o`quvchilardan yetarlicha javob olgach, so`ng o`zi ertak haqidagi fikrlarini gapirib beradi.

Bolaligimizdan barchamiz ertak o`qishni, tinglashni yaxshi ko`ramiz. Ertak tinglamay katta bo`lgan bola bo`lmasa kerak. Ertaklar xalq og`zaki ijodining eng boy janrlaridan biridir. Ertaklar insonlarda eng go`zal fazilatlarini tarbiyalaydi. Har bir xalqning o`z ertaklari bor. Masalan, o`zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq

xalq ertaklari. Qaysi xalqning ertagi bo`lmasin, ularda doimo yaxshilik yomonlik ustidan g`alaba qozonadi, shuning uchun ham “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, deymiz. Demak, “Ertak xalq og`zaki ijodining bir turi bo`lib, u she`riy yoki nasriy shaklda bo`ladi. Unda xalq hayoti, urf-odati, intilishi, orzu-armonlari to`qima voqealarga aks ettiriladi”. Masalan, nasriy ertaklarga: “Zumrad va Qimmat”, “Qaynar xumcha”, “Ur, to`qmoq”, “Oltin tarvuz” va hokazo. She`riy yo`lda yozilgan ertaklarga, masalan, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni, Anvar Obidjonning “Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak” kabi she`riy-dostonlari bunga misol bo`la oladi. Ertaklar asosan 2 xil bo`ladi. 1. Xalq ertaklari. 2. Adabiy ertaklar.

Xalq ertaklari xalq tomonidan yaratilsa, adabiy ertaklar esa yozuvchi yoki shoir tomonidan yaratiladi. Ertakchi shoirlarimizdan Hamid Olimjon, Anvar Obidjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa`dulla, Po`lat Mo`min, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib, Miraziz A`zam va Safar Barnoyevlar samarali ijod qildilar.


Ertakchi adiblarimiz:



Po`lat Mo`min




Anvar Obidjon



Miraziz A`zam



Quddus Muhammadiy



Rauf Tolib



Tursunboy Adashboyev



Zafar Diyor



Qudrat Hikmat
(1925 — 1968)

Qudrat Hikmat



Hamid Olimjon

ERTAK NOMINI TOPING?



Lug`at bilan ishlash:

Ertaklar olamida - в мире сказок

Xalq og`zaki ijodi – устное народное творчество

Fazilat - достоинство

Yomonlik - зло

Yaxshilik - доброта, добро

Yetaklamoq - повести, водить

☀ **Mustahkamlash: Mashq va topshiriqlar:**

2-topshiriq.“Ertaklar olamida” matnini o`qing, mazmunini so`zlab bering. Savollarga guruhlar og`zaki javob beradilar.

BILIB OLING!

O`tgan zamon hikoya fe`li nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish orqali ifodalaydi. O`tgan zamon hikoya fe`li fe`l o`zagiga –(i)b qo`shimchasini qo`shish va shaxs-sonda moslash orqali yasaladi. Masalan:
o`qi+b+di, bor+ib+siz, ayt+ib+man kabi.
*Ular gapda uyushib kelgan birikmalarni yoki qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog`lash uchun qo`llanadi. Masalan: **Shahrimizda baland binolar va go`zal bog`lar ko`p.***

O`tgan zamon hikoya fe`lining tuslanishi

Shaxs/son	Birlik	Ko`plik
I shaxs	Kelibman	kelibmiz
II shaxs	Kelibsan	kelibsiz
III shaxs	Kelibdi	Kelibdilar

1-mashq.Nuqtalar o`rniga tegishli so`z va so`z birikmalarini qo`yib, gaplarni ko`chirib yozing. Namuna: *1. Men o`zbek xalq ertaklarini o`qishni yaxshi ko`raman.*

2-mashq . Nuqtalar o`rniga berilgan qo`shimchalardan mosini qo`yib, ko`chirib yozing. Namuna: *Qizim , narsalaringni yig`ishtir.*

3-mashq. Qavs ichida berilgan so`zlarni o`tgan zamon hikoya fe`liga aylantirib ko`chirib yozing. Bu mashqni guruhlardan bittadan o`quvchi doskaga chiqib bajaradi.

“Bilimdonlar” guruhi

Xafa bo`lma, qizim, senga yordam
beraman,- debdi kampir va uni ovqatlan-

“Zukkolar” guruhi-

Kampir undan xafa bo`libdi,
qo`g`irchoqlar va rasmlı ki-

tiribdi, iliq soʻzlar aytibdi.


toblar bermabdi, ertak ham aytib bermabdi.

Quyidagi metodlar orqali guruhlar bellashadilar. Qaysi guruh birinchi bajarsa, oʻsha guruhga qoʻshimcha ballar beriladi.

“Blis-soʻrov” metodi

Laylakvoy meni ikkinchi marta aldadi, ertaga borib boshqa bir sovgʻa soʻray, -dedi.	“Zumrad va Qimmat”	“Ur, toʻqmoq”	“Oygul bilan Baxtiyor”	“Uch ogʻayni botirlar”	“Tulki vaturna”
Uch kunlik yoʻlda qanday voqealarni koʻrgan boʻlsak, oʻrtaga tashlaydigan vaqt keldi,- debdi		+			
Qiz atrofni tomosha qilib turib, qadrdon uyiga koʻzi tushibdi.				+	
Aybga buyurmaysan, azizim. Seni boʻtqadan boshqa narsa bilan mehmon qilolmadim, -debdi.	+				
“Koʻngli juda toliqdi: “Jinday non bormi?”dedi. Baliqchi tanti edi: “Yoʻqdir berar nonimiz, Lekin kuyar jonimiz”.			+		

“ Venn diagrammasi”



“Sinkveyn” metodi

1. Ertak

2. qiziqarli, sarguzasht

3. o`qiydi, eshitadi, tarbiyalaydi

4. Ertaklarinsonlarniyaxshilikkayetaklaydi.

5. Matal, cho`pchak

3-topshiriq. Hamid Olimjonning quyidagi she`rini ifodali o`qish va uning mazmuni asosida savol-javob o`tkazish.

Oygul bilan Baxtiyor

Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda,

Ko`p erda keshitgandim,

So`ylab berardi buvim.

Esimda o`sha damlar,

O`zi uchar gilamlar,

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,

Oyni uyaltirgan qosh;

Ot bog`lagan qanotlar,

Beqanot uchgan otlar,

BaxtiyorbilanOygul,

Qiz bo`lib ochilgan gul.

So`ylaguvchi devorlar,

Bola bo`p qolgan chollar,

Buvingning harq issasi

Har bir qilgan hissasi,

Fikrimni tortar edi,

Havasim ortar edi.

Tinglar edim betinim,

Uzun tunlar yotib jim,

Seza olardim kuchin,

Ko`pi yolg`on, ko`pi chin.

Ammo Oygul - Baxtiyor

Ertagini u takror, qilar edi har kechin...

Lug`at bilan ishlash:

Bolalik - детство

Uyqusiz tun – бессонная ночь

Qanot - крыло

So`zlovchi //so`ylaguvchi - говорящий

Devor - стена, забор

Qissa - повесть, сказание

Hissa - доля, часть

Chin – истина, правда

O`quvchilar bilimini baholash: Guruhlarning ballari e`lon qilinadi. G`olib guruh e`lon qilinadi. O`quvchilarning darsdagi ishtiroklariga qarab, faol ishtirok etganlarni rag`batlantirib, baholash.

Uyga vazifa berish: O`z sayohatingiz haqida kichik matn tuzing.

7-SINF

UMUMLASHTIRUVCHI DARS

Darsning maqsadi:

a) ta`limiy maqsad - o`quvchilarda III chorak yakuni bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalar hosil qilish.

b) tarbiyaviy maqsad – o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, do`stona munosabatni qadrlashga o`rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad – o`quvchilarni mustaqil fikrlashga va o`rganganlarini umumlashtirishga o`rgatish.

Tashkiliy qism:

-salomlashish;

-davomat;

-o`quvchilar ruhiy holatini kuzatish.

O`quv jarayonini amalga oshirish:

Dars turi: umumlashtiruvchi

Dars usuli: interfaol

Dars shakli: jamoa bilan ishlash

Dars jihozi: darslik, tarqatma materiallar, savol-kartochkalar

Nazorat turi: yozma va og`zaki

Baholash: 5 balli sistemada

I bosqich. Dars o`tilgan mavzular asosida tayyorlangan tarqatma materiallarni o`quvchilarga tarqatishdan boshlanadi. Tarqatma materiallar namunasi:

1- savol Gap tuzing, gapingizda qaratqich kelishigi belgisiz qo`llansin.

2- savol Qanday otlar mavhum otlar deyiladi? Misollar keltiring

3- savol O`rin-joy otlariga misollar keltiring.

Shu tarzda mavzuga doir savol va topshiriqlar bajariladi.

II bosqich

4-savol Aniq otlarga misollar keltiring.

5-savol Gapda tushum kelishigini belgisiz qo`llang.

6-savol Qanday kasblarni bilasiz? Aytilgan kasblardagi qo`shimchalarni ajrating.

7-savol Kasblar haqida she`r ayting.

8-savol Мыслитель-прошлое-ум-разум-установить so`zlarini o`zbek tiliga tarjima qiling.

9-savol Chin do`st sizning fikringizcha qanday bo`lishi kerak?

10-savol Do`stlik haqida she`r ayting.

11-savol Ot ko`makchilarga qaysi so`zlar kiradi?

12-savol Insoniy fazilatlarini sanang.

13-savol O`zbek tilining asoschisi kim?

Mayda bo`laklardan butun narsa yasash, masalan, harflardan so`zlar tuzish. Bu metod o`quvchilarning fikrlashini kengaytiradi, so`z boyligining kengayishiga yordam beradi. Masalan: ***n ch, s, l, sh, t, r, o, n, u, k***

<i>Son</i>	<i>kul</i>	<i>ust</i>	<i>or</i>	<i>osh</i>	<i>tor</i>
<i>Ot</i>	<i>tur</i>	<i>tus</i>	<i>chol</i>	<i>tosh</i>	<i>uch</i>
<i>Un</i>	<i>kut</i>	<i>tuk</i>	<i>ol</i>	<i>nur</i>	<i>shou</i>
<i>Tun</i>	<i>soch</i>	<i>ot</i>	<i>stol</i>	<i>kun</i>	<i>shon</i>
<i>Kuch</i>	<i>sut</i>	<i>nok</i>	<i>stul</i>	<i>stol</i>	<i>tush</i>

III bosqich. “T” chizmasi yordamida o`quvchilarning odob-axloqqa oid qarashlarini bilish mumkin. Ularga insoniy fazilatlar bilan salbiy odatlarni bir-biriga taqqoslash vazifasi topshiriladi. Masalan:

Ijobiy fazilatlar	Salbiy odatlar
Mehribon	xasis
Mehnatsevar	nodon
Xushmuomala	maqtanchoq
Rostgo`y	yolg`onchi
Tirishqoq	dangasa
Farosatli	loqayd


IV bosqich. Ijodiy topshiriq sifatida o`quvchilarga o`tilgan mavzular bo`yicha tuzilgan **REBUS**lar tarqatiladi. Rebuslar o`quvchilarning Davlat tili faniga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Chunki undagi rang-baranglik barcha katta yoshdagilarga ham yaxshi taassurot qoldiradi.

Baholash: Dars davomida faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi, 5 ballik tizimda baholanadi.

Uyga vazifa: Uyga vazifa sifatida o`quvchilarga ta`til topshirig`i beriladi. O`zbek tilida yozilgan biror badiiy asarni o`qib kelish topshiriladi.

O'QUVCHILAR UCHUN IJODIY TOPSHIRIQLAR NAMUNASI

KROS SVORD



1. Gumon olmoshini hosil qiluvchi qo`shimcha.
2. Nima inson so`z boyligini oshiradi?
3. X asrda yashab o`tgan buyuk tarixchi va matematik, dunyo xaritasini chizgan olim.
4. Axborot resurs markazi.
5. Sersuv so`zining rus tilidagi tarjimasi.
6. Samarqandning qadimiy nomi?
7. 1000 sonidan chama son hosil qiling.
8. Yangi yilning ko`rki.
9. Jamlovchi son qo`shimchasi.

K R O S S V O R D

K	u	t	U	b	x	o	n	a
	u	r	A	g	o	n		
	u	k	A	l	d	o	s	h
	a	t	T	a	r	o	q	
	a	m	A	l	a	k		
	r	o	S	s	v	o	r	d
	a	r	M	a	n	a		
	o`	r	S	a	t	I	s	h
	u	n	D	a	l	i	k	

1. Ma`rifat markazi.
2. Mirzo Ulug`bekka mo`g`ullar tomonidan berilgan nom.
3. Toshkentdagi madrasa
4. Katta so`zining ozaytirma darajasi
5. Raduga so`zining o`zbek tilidagi tarjimasi
6. Aqlni charxlaydigan boshqotirma
7. Navoiy viloyatidagi shahar nomi
8. Olmosh turi
9. O`quvchining hujjati

MINI TEST

1-guruh uchun

T/r	Tarixiy obidalar	Samarqand	Buxoro	Xiva	Toshkent
1.	Registon maydoni				
2.	Minorai Kalon				
3.	Ismoil Somoniy maqbarasi		+		
4.	Kukaldosh madrasasi				







5.	Sherdor madrasasi				
6.	Ichan qal`a				
7.	Ulug`bek rasadxonasi				
8.	Bibixonim maqbarasi				
9.	Baroqxon madrasasi				
10.	Labi hovuz				

MINI TEST

2-guruh uchun

T/r	Tarixiy obidalar	Samarqand	Buxoro	Xiva	Toshkent
1.	Ark ansambli				
2.	Go`ri Amir				
3.	Shohi zinda				
4.	Dishan qal`a				
5.	Al-Buxoriy				
6.	Ko`p ustunli Juma masjidi			+	
7.	Tillakori				
8.	Bahouddin Naqshbandiy maqbarasi				
9.	Mo`yi muborak				
10.	Baroqxon madrasasi				

RASMLI TEST

Tarixiy obidalar	Pahlovon Maxmud m.	Doniyor Payg'ambar maqbarasi	Mirzo Ulug'bek observatoriyasi	Oq saroy	Al-Buxoriy m.	Baroqxon madrasasi	Ismoil Samoniy maqbarasi
							
							
							
							
							
							
							

5-SINF

1. Kuzda havo bo`ladi.

Nuqtalar o`rniga kerakli so`zni qo`ying.

A. salqin B. oltin C. yig`m-terim D. Chiroyli

2. Urojay so`zining o`zbek tilidagi tarjimasi qanday bo`ladi?

A. yig`moq B. hosil C. termoq D. Poliz

3. Iltimosga rad javobni aniqlang.

A. xo`p B. mayli C. zarari yo`q D. Ilojim yo`q

4. Tushum kelishigi qo`shimchasini toping.

A. –dan B. –ning C. –lar D. –ni

5. Kuz faslida nishonlanadigan bayram nomini aniqlang.

A. Navro`z B. yangi yil C. Mehrjon D. 8-mart

6. Mehnat, mehnat..... tagi rohat.

Nuqtalar o`rniga kelishik qo`shimchalardan mosini qo`ying.

A. –ni B. –ning C. –ga D. –da

7. “Kitob” so`ziga mos so`zni toping.

A. baland B. uzun C. katta D. qiziq

8. Doim a`lo o`qishga Men qilganman ahd. deb yakunlanuvchi she`rning nomini aniqlang.

A. “A`lochi bo`lay desang” B. “Mening darsxonam”
C. “Oltin kuzim” D. “Dam olish kunida”

9. Berilgan so`zning to`g`ri tarjimasini aniqlang. Светые

A. idrok B. yorqin C. sabo D. nihol

10. Berilgan maqol nima haqida?

Olim bo`lsang – olam seniki.

A. Vatan haqida B. Dangasalik haqida
C. Bilim haqida D. Hurmat qilish haqida

11. Kimdan? nimadan? qayerdan? so`roqlari qaysi kelishikning so`roqlari hisoblanadi?

A. Bosh kelishik C. Qaratqich kelishigi
B. Tushum kelishigi D. Chiqish kelishigi

12. Paytni bildiradigan gapni aniqlang.

A. Shahardan chiqdik. C. U mendan baland.
B. Shishadan yasalgan. D. Ertalabdan ishga kirishdik.

13. Hordiq so`zi rus tilida qanday tarjima qilinadi?

A. отдых S. rostok
V. naslajdenie D. Poryadok

14. “Uch buyuk tabib” rivoyatida ustoz o`z shogirdlariga sog`lom bo`lish uchun nimalarga amal qilishni buyuradi?

A. poklikka C. badantarbiyaga
B. parhezga D. A,B,C

15. Tom juda baland ekan, u yerdan hammaa yoq ko`rinar ekan. Qiz atrofni tomosha qilib turib, qadrdon uyiga ko`zi tushibdi. Uyini sog`inib, yig`lab yuboribdi. Ushbu parcha qaysi ertakda nolingan?

A. “Susambil” C. “Zumrad va Qimmat”
B. “Shirin uyqu” D. “Oygul bilan Baxtiyor”

16. O`tgan zamon hikoya fe`lini toping.

- A. o`qibdi
B. yozyapti
C. gaplashmoqchi
D. so`zlashdi

17. Qaysi qatorda maqol berilgan?

- A. Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do`stlardir.
B. Kattalarga salom ber.
C. Kitobingni avayla.
D. Ko`p o`yla, oz so`zla.

18. Jo`nalish kelishigi qoshimchasini yozing.

19. Dam olish kuni deganda qaysi kunni tushunasiz?

20. Bugungi ishni ertaga qo`yma.

Berilgan maqolda qaysi kelishiklar qo`llangan?

21. Kun tartibi so`z birikmasini ona tilingizga tarjima qiling.

22. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

23. “Oygul bilan Baxtiyor” she`riy dostonining muallifi kim?

24. Sladkiy son so`z birikmasini o`zbek tiliga tarjima qiling.

25. O`tgan zamon hikoya fe`liga misollar yozing.

5-sinf

1. Shakl-ko`rinishni ifodalovchi sifatlarni aniqlang.

- A)Pakana, nordon
B)Hashamatli, semiz
C)Dumaloq, yashil
D)Savlatli, shirin

2. Maza-ta`m yasovchi qo`shimchalarni toping.

- A) –paz, -kor
B) –li, -siz
S) –chi, -soz
D) –kor, -bon

3. Xarakter- xususiyatni ifodalovchi sifatlar qatorini toping.

- A) xushmuomala, odobli B) yashil, binafsharang
S) tuzli, nordon D) qisqa, ingichka

4. Kishilik va ko'rsatish olmoshlarini aniqlang?

- A) Kim? Men. B) O'zim, barcha.
C) O'sha, siz. D) Hamma, barcha.

5. Qaysi qatorda belgilash olmoshi berilgan?

- A) Hamma sinfga kirdi B) Hech kim uy vazifasini bajarmagan
C) Mening Vatanim-O'zbekiston D) Bu kitobni o'qi

6. Qaysi qatorda egalik va qaratqich kelishiklari qo'llangan?

- A) Buvijonim keldilar B) Mening buvijonim
C) Buvimlarnikiga boraman D) Buvimni yaxshi ko'raman.

7. Kimdan? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zni aniqlang.

- A)Ukamga B)Singlimga
C)Bozordan D)Ustozimdan

8. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

Ko'ngillarini ... xushlab, Qo'llaridan ...ushlab,
Manziliga ... zamon, Kuzataman ...tomon.

- A) birrov, yetgan, tezda,eshik B) eshik, birrov, tezda,yetgan,
C) tezda, birrov,yetib, uzoqqa D) asta, qattiq, yetib, ko'cha

9. Samarqand shahri necha yillik tarixga ega?

- A)2000 yillik B)1324 yillik

C)2500 yillik D)2750 yillik

10. Minorayi Kalon qayerda joylashgan?

A)Samarqandda B)Buxoroda

C)Xivada D)Andijonda

11. “Birinchi muallim” kitobini kim yozgan?

A)Hamid Olimjon B)Abdulla Avloniy

C)Alisher Navoiy D)Fitrat

12.”Odobli bola” she’rining muallifini aniqlang.

A)Qambar Ota B)Do’stjon Matjon

C) Po’lat Mo’min D)Abdulla Oripov

13. Rang-tusni ifodalovchi so‘zlarni aniqlang.

A)Baland, past B)Sariq, oq

C)Odobli, aqlli D)Semiz, uzun

14. Odam so‘ziga mos sifatni toping.

A) nordon B) ko‘k

S) tor D) novcha

15. Taqsim sonlar sanoq sonlarga qaysi qo‘shimchani qo‘shish orqali yasaladi?

A) -ta B)-ning

C) –tadan D)-ni

16. Hajm - o‘lchovni bildiruvchi so‘z qaysi qatorda berilgan?

A) U besh yoshida katta- katta g‘azallarni yoddan bilardi.

B) Alisher Navoiy yoshligidan kitob o‘qishni yaxshi ko‘radi.

C) Alisher yoshligidan juda ko‘p she’r yodlagan.

D) O‘spirinlik davrida Samarqandda o‘qidi.

17. Professor Talyavini 17 yoshligida nechta tilni bilgan?

A)5 ta

B)9ta

C)7ta

D)12ta

18. Qaysi so‘zning tarjimasi noto‘g‘ri berilgan?

A) va‘da bermoq-obeщat

B) jiddiy-ser‘yozno

C) ruxsatsiz-ponimat

D) tan olmoq-priznavat

19. Rang – tusni ifodalovchi so‘zlar qatnashgan gap yozing.

20. Ismoil Samoniy maqbarasi qaysi shaharda joylashgan?

21.”Mening darsxonam” she’ridan namuna yozing?

22. Navro‘z bayrami qaysi faslda nishonlanadi?

23. Dona va taqsim sonlarga misollar yozing.

24. “Navro‘z” so‘zining ma‘nosi?

25. Buyuk allomalardan kimlarni bilasiz?

6-SINF

1. Qaysi qatorda egalik qo‘shimchasi bilan kelgan o‘zlik olmoshilari berilgan?

A) o‘zim, o‘zing, o‘zimiz

B) allakim,allanima,allanarsa

C) shunisi, shunga, shuncha

D) biz,ular, siz.

2. “ irmoq” so‘zining to‘g‘ri tarjimasini toping

A) Rodnik

V) Zemlya

C) Ruchey

D) more

3. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi nechta xona va bo'limdan iborat?

- A) 9 xona, 11 bo'lim B) 40 xona, 8 bo'lim
C) 25 xona, 2 bo'lim D) 12 xona, 25 bo'lim

4. "Salobatli" so'zining to'g'ri tarjimasini toping

- A) Kompleks V) Bolshoy
C) Belichestvennyy D) Vidnyy, avtoritetnyy

5. "- Senga javob, o'g'lim, ketaver! Borib savdogarga shogird tush! – dedi" gapi qaysi matndan keltirilgan?

- A) "Chin do'st" matnidan
B) "Mehnatning tagi rohat" matnidan
C) "Yilboboning tuhfası" matnidan
D) "Donishmand ustoz" matnidan

6. Kasr son butunning----- ifodalaydi.

- A) bo'lagini B) butunligni
S) ulushini D) A va S javoblar to'g'ri

7. She'rdā tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

*Yigit...bo'lsa, xayf-u xatar yo'q,
Qalqon bor, qa'la but, ...salomat.*

- A) somon, qo'rg'on B) salomat, omon
C) omon, qo'rg'on D) qal'a, omon

8. "kosibchilik" so'zining to'g'ri tarjimasini toping

- A) SHveya V) Plotnik
S) YUvelir D) Kustarnoe delo

9. Qaysi qatordagi gapda olmoshning I shaxs birlikdagi shakli qo‘llangan?

- A) Biz O‘zbekiston farzandimiz.
- B) O‘zbekistonning qaysi shaharlarida bo‘lgansiz?
- C) Men Buxoroda tug‘ilganman.
- D) Ular ta’tilda Samarqandga borishmoqchi.

10. Terma jamoa so‘zining to‘g‘ri taijimasini toping.

- A) sbornaya komanda
- B) shkolnaya komanda
- C) rayonnaya komanda
- D) sobrannaya komanda

11. Qora, pushti, kichik so‘zlari sifatning qaysi darajasiga kiradi?

- A) ozaytirma daraja
- B) orttirma daraja
- C) oddiy daraja
- D) kuchaytirma daraja

12. Qaysi qatorda qor, yomg‘ir , do‘l so‘zlariga mos keladigan harakat bildiruvchi so‘z berilgan?

- A) Yemoq
- B) Bo‘lmoq
- C) Tinmoq
- D) Chiqmoq

13. O‘qimoqchiman so‘zi qaysi shaxsga tegishli.

- A) II shaxsga
- B) III shaxsga
- C) I shaxsga
- D) Shaxsi noma’lum.

14. Qaysi qatorda daraja-miqdor ravishlari berilgan?

- A) unda, bunda, nari
- B) erta, kecha, so‘ng
- C) oz, ko‘p, kam
- D) tez, sekin, to‘satdan

15. ”So‘zlar adashdi” she’rining muallifi kim?

- A) Kavsar Turdiyeva
- B) G‘. G‘ulom
- C) P. Mo‘min
- D) Nazarmat.

16. Qaysi qatorda jamlovchi son berilgan?

- A) Ikki ming o'n uchinchi yil omadli kelsin
- C) O'quvchi o'ntacha savolga javob berdi.
- B) G'oliblar bayroqni ikkovlashib ko'tarishdi.
- D) Qorbobo bolalarga bittadan sovg'a berdi.

17.-moqchi qoshimchasi qaysi zamon fe'liga qo'shiladi.

- A) Hozirgi zamon davom fe'liga
- B) Kelasi zamon fe'liga.
- C) O'tgan zamon fe'liga
- D) Uzoq o'tgan zamon fe'liga qo'shiladi.

18. Qaysi qatorda orttirma darajadagi sifat berilgan?

- A) Mahallamiz ko'chalari obod va keng
- B) Paxtakor futbol jamoasi juda kuchli
- C) Maktabimiz kutubxonasi katta va yorug'
- D) Teliminora boshqa binolardan baland

19. Holat ravishlariga misol keltiring.

20. " Yodgorlik " so'zining tarjimasini yozing?

21. Sezgi a`zolarimiz orqali bilishimiz va tasavvurimiz orqali idrok qilinadigan narsalarni bildiruvchi otlar qanday nomlanadi?

22. Navro`z bayrami qachon paydo bo`lgan?

23. Payt ravishi ishtirok ettirib gap tuzing.

24. Haqida, to`g`risida ko`makchilari qayi so`z turkumiga kiradi?

25. O'zbek tilida –day,-dek, go'yo, kabi, xuddi, singari vositalari qanday ma'nolarni bildiradi?

7-sinf

1. *Atrofga e`tiborli bo`lsak, boyliklarimiz, sog`lig`imizni saqlab qolamiz.*

Tabiatni asramasak, juda ko`p narsalarni yo`qotamiz. Bo`lishli va bo`lishsiz shaklda qo`llangan shart maylidagi fe`llarni aniqlang.

- A. E`tiborli bo`lsak, asramasak
- B. Boyliklarimiz, sog`lig`imiz
- C. Saqlab qolamiz, yo`qotamiz
- D. Sog`lig`imizni, narsalarni

2. **Qaysi ishda isrofgarchilikka yo`l qo`yilsa, tejamkorlik bilan ish ko`rilmasa, u barbod bo`ladi. Ushbu gapga mos keladigan matn nomini aniqlang.**

- A. Tabiatni sarang.
- B. Loqaydlik va Isrofgarchilik
- C. Orolni asrang.
- D. Ona yer tuhfasini.

3. **“Ketib qolma, Orolim” she`rining muallifi kim?**

- A. Muhammad Yusuf
- B. Mirtemir
- C. Abdulla Oripov
- D. Po`lat Mo`min

4. **Сравнить so`zining o`zbek tilidagi tarjimasini aniqlang.**

- A. fikrlamoq
- B. gaplashmoq
- C. qiyoslamoq

D. kamaytirmoq

5. Maqolning davomini toping. Egri bo`lsang, ...

A. O`sib borib gul bo`lasan.

B. Kulfat seni chetlab o`tadi.

C. Yomon gap aytma.

D. Oxir borib kul bo`lasan.

6. Bilimlar bellashuvida Akmal g`olib ... kerak. Nuqtalar o`rniga shart maylidagi fe`llardan mosini tanlang.

A. chiqsa

B. qatnashsa

C. desa

D. nishonlasa

7. Alisher Navoiy necha yoshidan boshlab she`rlar yoza boshlagan?

A. 5-6 yoshidan

B. 7 yoshidan

C. 10-12 yoshidan

D. 4 yoshidan

8. Alisher Navoiy asarini aniqlang.

A. "Bahoriston"

B. "Muxtasar"

C. "Muhokamat ul-lug`otayn"

D. "Qobusnoma"

9. Sifatdoshlar qaysi qo`shimchalar bilan hosil qilinadi?

A. -gach, -kach, -qach

B. -gan, -kan, -qan

C. -chi, -dosh, -kor

D. -li, -siz, -be, -bo

10. Bo`lishsiz shaklida kelgan sifatdosh qatnashgan gapni aniqlang.

- A. Darsga kelmagan o`quvchilar bilan alohida suhbat olib borildi.
- B. O`tilgan mavzular bo`yicha o`zbek tili fanidan testlar olindi.
- C. Men Navoiy yozgan g`azallarini sevib o`qiyman.
- D. U mo`ysafidni darrov tanidi va ehtirom bilan salomlashdi.

11. A. Navoiy hikmatli so`zining ikkinchi qismini toping.

Hunarni asrabon netkumdir oxir, ...

- A. Qarilik chog` sarf qilg`il oni.
- B. Orlanib so`ramagan o`ziga zolim.
- C. Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.
- D. Izzat tilasang, kam de.

12. Ravona bo`lmoq fe`lining rus tilidagi tarjimasini aniqlang.

- A. napravlyatsya
- V. Xvalit
- S. Glotat
- D. vospevat

13. Ravishdoshning so`roqlarini aniqlang.

- A. qancha? qaysi?
- B. qanday? qanaqa?
- C. qay holda? qay tarzd
- D. nima qildi? nima qilyapti? nima qilmoqchi?

14. Farzand onasiga kulib qaradi.

Ravishdosh qatnashgan so`zni toping.

- A. farzand
- B. onasiga
- C. kulib
- D. Qaradi

15. "Alisherning onasi" she`ri qaysi shoir qalamiga mansub?

- A. Erkin Vohidov
- B. Muhammad Yusuf

C. Anvar Obidjon

D. Abdulla Oripov

16. Berilgan gaplarning qaysi biri II shaxs buyruq-istak maylida kelgan?

A. Shahrimiz keyingi yillarda juda o`zgarib ketdi.

B. Obodonchilik ishlariga o`z hissangizni qo`shing.

C. Navro`z bayramiga tayyorgarlikni boshlaylik.

D. Ota-bobolarimiz bunday farovon turmushni ko`rmaganlar.

17. I shaxs buyruq-istak maylidagi fe`lni aniqlang.

A. Har bir ishni oldindan o`ylab ko`r.

B. Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda bo`l.

C. Olim bo`lsang, olam seniki.

D. Biz ham tadbirda ishtirok etaylik.

18. "Navro`z" so`zi qanday ma`noni bildiradi?

19. Выставка so`zining o`zbek tilidagi tarjimasi?

20. Navro`z bayramini O`zbekiston xalqi qaysi kuni keng nishonlaydi?

21. Maqolni davom ettiring. Birni kessang, ...

22. Men mana bu gullardan guldastalar yasay. Ushbu berilgan gapning qaysi shaxsda qo`llanganini aniqlang.

23. A. Navoiyga yuksak ehtirom sifatida haykallar o`rnatilgan. Bu haykallar qaysi shaharlarda?

24. Ona haqida maqol yozing.

25. Ta`lim to`g`risidagi qonun Konstitutsiyaning qaysi moddasida keltirilgan?

DARAJALI TESTLARDAN NAMUNA

1. So`z tarkibi asos va qo`shimchalarga bo`linadimi?

Ha. Yo`q.

2.-chi, -lik, --kor, -lar, -ni qo`shimchalari mustaqil qo`llana oladimi?

Ha. Yo`q.

3. So`zning asosiy ma`nosini ifodalab, mustaqil qo`llana oladigan qismi asos deyiladimi?

Ha. Yo`q.

4. To`g`ri yozilgan so`zlar qatorini aniqlang.

A. ixtirochi, sayohatchi, halollik

B. siyoxdon, oxangdor, xolvachi

C. bilimli, zakovadli, ixtirochi

D. xalollik, iste`dotli, siyohdon

5.

Savollar	Javoblar
So`z tarkibi nimalardan iborat?	So`z yasovchi qo`shimchalar
Mustaqil qo`llana olmaydigan, asosga qo`shilib, unga yangi yoki qo`shimcha ma`no yuklaydigan, shuningdek, so`zlarni bog`lashga xizmat qiladigan qismga nima deyiladi?	So`zning asosiy ma`nosini ifodalab, mustaqil qo`llana oladigan qismi asos deyiladi.
Qaysi qo`shimchalar asosga qo`shilib yangi ma`nodagi so`z hosil qiladi?	Asos va qo`shimchalar
So`zning qanday qismi asos deyiladi?	Leksikologiya
Morfologiya bo`limi bilan qaysi bo`lim o`rtasida uzviy aloqa mavjud?	Qo`shimcha

6. Komatsu o`zbek tilini Yaponiyada targ`ib qilayot... fidoyi olimlar... biridir. Nuqtalar o`rniga kerakli qo`shimchalarni tanlang.

- A. –gan, -dan B. –dan, -da
C. –dan, -gan D. –ir, -ning

7. Nuqtalar o`rniga mos qo`shimchani aniqlang.

Mard... - bu ezgu tuyg`u, muqaddas fazilat, tabarruk meros.

- A. –chi B. –lik C. –kor D. –shunos

8. Nuqtalar o`rniga mos qo`shimchani aniqlang.

Mard... - bu ezgu tuyg`u, muqaddas fazilat, tabarruk meros.

- A. –chi B. –lik C. –kor D. –shunos

9. Iste`dodli, bilimdon yoshlar o`qish uchun chet ellarga yuborilmoqda.

Berilgan gapning tahlil chizmasini aniqlang.

- A. _____ , _____ _____ ~~~~~~ _____
B. ~~~~~~ , ~~~~~~ _____ ~~~~~~ _____
C. _____ ~~~~~~ - - - - - ~~~~~~ _____
D. ~~~~~~ , ~~~~~~ _____ _____ _____

9. Asosga qo`shilib, yangi ma`no hosil qiluvchi qo`shimchalar.....

- A. Shakl yasovchi qo`shimchalar
B. So`z yasovchi qo`shimchalar
C. Lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalar
D. Sintaktik shakl yasovchi qo`shimchalar

10. So`zning shakl yasovchi qo`shimchalarsiz qismi ... deyiladi.

- A. Asos B. Qo`shimcha C. negiz D. A B C

11. Ko`ngilchan so`zi qaysi qatorda ma`noli qismlarga to`g`ri ajratilgan?

- A. Ko`n-gil-chan B. Ko`ngil-chan

C. Ko`ngil-chan

D. Ko`ngil-cha-n

12. Qaysi so`zda ham yangi ma`no beruvchi, ham qo`shimcha ma`no yuklovchi qo`shimcha mavjud?

A. Ajratildi

B. Sezgir

C. Sayohatchilar

D. Shifokor

13. 1. –chi, -kor; 2.-ni, -ning; 3. –la, -loq; 4. –gan edi, -di; 5. –paz, -iston; 6.-don, -kash. Yangi ma`nodagi so`z hosil qiladigan qo`shimchalar joylashgan qatorni toping.

A) 1,2,3,5,6

B) 2,3,4,6

C) 1,2,3,4,5

D) 1,3,5,6

14. So`zlarning grammatik ma`nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o`rganuvchi tilshunoslik bo`limi _____ sanaladi. Kerakli so`zni qo`yib fikrni to`ldiring.

Xulosa

Bugungi kunda ta`lim mazmuni yangilanib, yangi davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda. Sifat va samaradorlikka qaratilgan pedagogik texnologiyalar o`quv jarayoniga tatbiq etilib, darsliklar sifati, mazmuni takomillashmoqda. Bular, albatta, o`qituvchilarimizning pedagogik mahorati, bilimlarini oshirishga, ijodiy izlanishlariga zamin yaratsa, o`quvchilarimizni mustaqil fikrli, aql-zakovat bobida hech kimdan qolishmaydigan insonlar bo`lib ulg`ayishlarini ta`minlaydi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda ta`lim jarayoni sifatini yuqori darajaga olib chiqishi mumkin bo`lgan metodlar tizimiga aylandi. Shunday ekan, texnologik yondashuv asosida o`quvchilarga bilim berish, ularning malaka, ko`nikmalari bilan birga ularning kompetensiyalarini shakllantirishga yo`naltirilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi hamkorlik ko`lamini kengaytiradi.

O`qituvchiga munosib baho o`quvchining bilimi, aql-zakovati orqali beriladi. Kuchli bilim va salohiyatga, yuksak mahoratga ega o`qituvchi darslarni noan`anaviy usullar yordamida tashkil etish orqali o`quvchiga puxta bilim bera oladi. Yosh avlodga ta`lim-tarbiya berayotgan o`qituvchi, avvalo, o`zi chuqur bilimga ega bo`lishi, mavzularni interfaol usullardan foydalanib, oson va mazmunli tushuntira olishi lozim. Shundagina o`quvchilarga fanga nisbatan mehr uyg`ota oladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizning kelgusida yanada farovon, gullab-yashnagan diyorga aylanishi, xalqimizning ertangi kuni farzandlarimizning bugun qanday ta`lim-tarbiya olishiga bog`liq ekan, bu buyuk mas`uliyat barcha pedagog-o`qituvchilarning diqqat markazida bo`lmog`i hamda maqsadiga aylanmog`i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Islom Karimov. “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent. ”Ma`naviyat” 2008.
2. N. Bekmirzayev. “Notiqlik san`ati asoslari”. Toshkent. “Yangi nashr” 2008.
3. D. O`rinboyeva va boshqalar. “O`quvchilar og`zaki va yozma nutqini o`stirish usullari”. Samarqand,2012
4. Noan`anaviy dars ishlanmalari. Sadriddinzoda Sh. va boshqalar. Samarqand,2005
5. A. Rafiyev va boshqalar.5-sinf uchun o`zbek tili darsligi. Toshkent. “O`qituvchi” 2015.
6. X. Muhitdinova va boshqalar. 6-sinf o`zbek tili darsligi. “Yangiyo`l poligraf servis” 2013.
7. X. Muhitdinova va boshqalar. 7-sinf uchun o`zbek tili darsligi. Toshkent “O`qituvchi” 2013.
8. X. Muhitdinova va boshqalar. 8-sinf uchun o`zbek tili darsligi. Toshkent “O`qituvchi” 2014.
9. WWW.Ziyonet.uz
10. WWW.google.ru

Yuldosheva Saodat Azizovna

**O`ZBEK TILI DARSLARIDA O`QUVCHILAR
NUTQINI O`STIRISHDA XALQ OG`ZAKI
IJODINING O`RNI**

*Ona tili va adabiyot fani o`qituvchilari uchun
uslubiy ko`rsatma*

Terishga berildi: 28.12. 2018 y.

Bosishga ruxsat berildi: 29.12.01.2018 y

Ofset bosma qog`ozi. Qog`oz bichimi 60x84 ^{1/36}.

«Times» garniturasini. Ofset bosma usuli.

2 bosma taboq

Adadi:25 nusxa.

Buyurtma №__

SamDU huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, H.Obiddinov ko'chasi 7-uy

